




## NAMANGAN VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT

Har bir insonni yetuk va barkamol bo'lib shakllanishida kitobning o'rni beqiyosdir. Kitob - insoniyatni yuksaklikka olib chiqqan ulkan bir




poydevordir. Ajdodlarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan barcha ilmiy-ma'rifiy bo'yliklar albatta bu kitob orqalidir. Hozirgi kunda yurtimizda yosh avlodning ma'rifati va ma'naviyatini yuksaltirishda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish uchun alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'naviyati

boy inson har yerda doimo qadrlangan.

2018 yilda Namangan viloyati bo'yicha jami 210 ta kutubxona muassasalari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu muassasalardagi kitob va jurnallar soni 4555,1 ming nusxani tashkil etgan bo'lib, ulardan foydalanuvchi kitobxonlar soni 470,9 ming kishidan iborat. Yil davomida kitobxonlarga jami 10319,8 ming nusxadagi kitob va jurnallar foydalanish uchun berildi.

## 2018 yilda Namangan viloyatidagi kutubxona muassasalarining soni




2018 yilda o'rtacha bitta muassasaga to'g'ri keladigan kitob va jurnallar soni 14320,0 nusxani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich shahar joylardagi muassasalarda - 14625,4 nusxaga, qishloq joylardagi muassasalarda – 7108,1 nusxaga to'g'ri keldi.

O'rtacha bitta muassasadagi foydalanuvchilar soni viloyat bo'yicha 2242,2 nafarni tashkil etadi. Shahar joylarda bu ko'rsatkich 2567,3 nafarga, qishloq joylarda 1532,9 nafarga to'g'ri kelgan.

2018 yilda viloyatdagi kutubxona muassasalarida jami 889 nafar kutubxona xodimlari kitobxonlarga xizmat qilganlar. Ularning 811 nafarini, yani 91,2 % ni ayollar tashkil etadi. Jami kutubxona xodimlarining 138 nafari oily va 719 nafari o'rta ma'lumotga ega. Mutaxassisligi kutubxonachilik bo'lgan xodimlar soni jami 651 nafardan iborat. Kutubxona xodimlarining 722 nafari shahar joylarda va qolgan 167 nafari qishloq joylardagi muassasalarda xizmat qiladilar.

**2018 yilda Namangan viloyatidagi kutubxona muassasalari xodimlari soni, birlik**



2018 yil yakuniga ko'ra, viloyat kutubxona muassasalaridagi kitob fondi 3007,2 ming nusxadan iborat. Umumiy fond xajmidan davlat tilidagi kitoblar 1749,8 ming nusxani, rus tilidagi kitoblar 1199,4 ming nusxani va boshqa tillardagi kitoblar 57,8 ming nusxani tashkil etdi. Yil davomida jami 91,3 ming nusxada kitob kelib tushgan va 54,1 ming nusxa kitoblar hisobdan chiqarilgan.

2018 yilda Namangan viloyatida 2 ta muzey faoliyat ko'rsatgan. Yil davomida tashrif buyurganlar soni 194,2 ming nafarni tashkil etdi.




Muzeyning yil oxiridagi asosiy fond eksponatlari soni 96143 taga yetgan.

Jumladan: arxeologiyaga doir buyumlar 8299 ta, turli xildagi sur'atlar 25344 ta, xujjatlar 40729 ta, numizmatika buyumlari 8482 ta, amaliy san'at buyumlari

1069 ta, maishiy va etnografiya buyumlari 3534 ta, rassomlikka oid eksponatlar 438 ta, grafika 8 ta, haykaltaroshlik 30 ta va boshqa turdagi eksponatlar 8210 tadan iborat.

### 2018 yilda Namangan viloyati muzeylari fondi (birlik)



2018 yilda Namangan viloyatida 1 ta teatr jamoasi faoliyat ko'rsatgan.



Namangan viloyat Alisher Navoiy nomidagi musiqa-drama teatri. Yil davomida ushbu teatrdan 231 ta spektakllar (tomoshalar) xalqimizga taqdim etildi. Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 70,3

ming kishini tashkil etdi

2018 yilda 231 ta drama va yosh tomoshabinlarga qo'g'irchoq janridagi spektakllar namoyish etildi.

Jami 70,3 ming nafar tomoshabinlarning barchasi drama va qo'g'irchoq teatriga tashrif buyurgan. Jami tomoshabinlardan 24,3 ming nafari qishloq aholisi hisoblanadi. Bundan tashqari 14,2



ming nafar aholiga bepul tomosha taqdim etilgan bolib, ularning 10,1 ming nafari qishloq joylardagi aholi hisoblanadi.

Viloyatning teatr jamolarida 39 nafar artist xodimlar faoliyat olib borgan. Ularning 15 nafari, ya'ni 38,5 % ni ayollar tashkil qiladi.



2018 yilda Namangan viloyati bo'yicha 2 ta konsert tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan. Ularning faoliyati gastrol-konsertdan iborat.

Yil davomida ushbu tashkilotlar tomonidan 158 ta konsert tomoshalari xalqimizga namoyish etilgan. Ular gastrol-konsertdan iborat. O'tkazilgan tadbirlardagi tomoshabinlar soni jami 23,6 ming kishini tashkil etdi.



Viloyat bo'yicha konsert tashkilotlarida xizmat qilayotgan artist xodimlar soni 41 nafarni tashkil etadi. Umumiy artist xodimlarning 53,7 % ini ayollar, ya'ni 22 nafardan iborat.

2018 yilda Namangan viloyatida 10 ta madaniyat va istirohat bog'lari faoliyat olib borgan. Namangan shahrining markazida joylashgan

Z.M.Bobur nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i, Kichkintoy bog'i hamda Kamolot yoshlar bog'lari shular jumlasidandir.




Bundan tashqari viloyat bo'yicha 68 ta madaniy dam olish ob'ektlari mavjud. Dam olish maskanlariga jami 120 ta turli xildagi atraksionlar o'rnatilgan. Yil davomida ularga jami 1678,6 ming nafar aholi tashrif buyurgan. Ulardan 1158,9 nafarini, yani 69,1 % ni bolalar tashkil etadi.



Viloyatning madaniy dam olish maskanlarida 2018 yil davomida jami 214 ta madaniy dam olish va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish ko'ngilochar tadbirlari o'tkazildi. O'tkazilgan ushbu tadbirlarning 117 tasi yosh bolalarga bag'ishlangan.

## Namangan viloyidagi madaniy va aholi dam olish markazlari soni (birlik)



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI**  
**NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA**  
**BOSHQARMASI IJTIMOIIY SOHA**  
**STATISTIKASI BO'LIMI**  
**TELEFON (71-230-84-94)**  
**(69-227-84-94)**